

---

MAKTABDA METODOLOGIK TA'LIM

---

Atoyeva Madinabonu Umid qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi(matematika) yo'nalishi 1-kurs magistranti

madinabonuatoyeva776@gmail.com

**Annontatsiya:** Ushbu maqola maktabda metodologik ta'limning ahamiyati va uning o'quvchilarga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada metodologik ta'limning mohiyati, o'rni, metodologik ta'limning amaliy usullari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Metodologik ta'lim, maktab, tahliliy fikrlash, mustaqil o'rganish, ilmiy izlanish, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, metodlar.

**Abstract:** This article provides a detailed account of the importance of methodological education in schools and its impact on students. The article outlines the essence and place of Ushbu maqola maktabda metodologik ta'limning ahamiyati va uning o'quvchilarga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada metodologik ta'limning mohiyati, o'rni, metodologik ta'limning amaliy usullari haqida bayon qilingan.

methodological education, practical methods of methodological education.

**Keywords:** Methodological education, school, analytical thinking, independent study, scientific research, logical thinking, creativity, methods.

Maktabda metodologik ta'lim – bu o'quvchilarga bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlar orqali o'zlashtirishga yordam beradiga pedagogik yondashuv. Ushbu jarayon ta'limning metodik asoslarini o'rganishni, o'qituvchilarni darslarda samarali metod va vositalardan foydalanishga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Metodologik ta'limning asosiy prinsiplaridan, maktabda samarali ta'limni amalga oshirish uchun foydalaniladi ularga:

O'quvchi markazli yondashuv: ta'limda asosiy e'tibor o'quvchiga qaratiladi, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va potensialini inobatga olish zarur.

Aktiv o'qitish: O'quvchilar faqat passiv tinglovchilar bo'lmasdan, o'z fikrlarini bildirishga, izlanishlarga kirishishga va o'z bilimlarini mustahkamlashga jalb qilinadi.

Differensial yondashuv: O'quvchilar o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab turli xil usullar bilan o'qitiladi.

O'quv jarayonining integratsiyasi: Turli fanlar va mavzular bir – biriga bog'lanib, o'quvchilarga keng qamrovli bilimlarni taqdimetadi.

Maktabda ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish uchun bir qator metod va usullar mavjud. Metod lotincha "metodas" yo'l so'zidan olingan bo'lib tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Pedagogika fanining ilmiy – tadqiqot metodlari tizimida mavjud metodlarga:

Adabiyotlarni o'rganish metodi;

Kuzatish metodi;

Bolalar ijodini o'rganish usuli;

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi;

Eksprement – tajriba, sinov usuli;

Test sinovlari metodi;

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli;

Matematik va kibernetik usullar;

Sotsiologik tadqiqot metodi.

Bularning barchasini unumli qo'llash uchun o'qituvchidan pedagogik mahurat talab qilinadi. Pedagogik mahorat – ta'lim beruvchining ustoz – murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va istedodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakillangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy – ijodiy faoliyatidir.

Bu mahurat o'z ichiga pedagogik jarayonni qamrab oladi. Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug'ullanadi. U pedagogic jarayonlarning ko'p tomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keladi: "Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand - nasihat, o'g'it va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir". Pedagogik jarayon – pedagogik fanlarning eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri.

Maktabda metodologik ta'limni takomillashtirish uchun yangi yondashuvlar va usullarni qo'llash zarur. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanilayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. O'quv - tarbiya jarayonida pedagogic texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'quv mashg'ulotini olib boruvchi o'qituvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiyalar asida o'tkazilgan mashg'ulotlar talaba – yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Innovatsiya (ingilizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.

Interfaol ( "Inter" – bu o'zaro, "ast" – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi.

Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, yoshlarning hamkorlikdagi va faol ishtirokdagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi o'qituvchilar va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O'quv jarayonidagi pedagogic texnologiya – bu aniq, ketma – ketlikdagi yaxlit pedagogic jarayon bo'lib, yoshlarning ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishilishi uchun hamkorlikdagi faoliyat, qo'yilgan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Texnologiya – ishlab chiqish jarayoni, pedagogic texnologiya esa – yaxlit pedagogic jarayondir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari: Loyihalashtirish, amalga oshirish, kafolatli natija. Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati – kafolatlangan natijaga yo'nalganligi. Har bir texnologiya, shu jumladan, pedagogic texnologiya ham o'zining mezonlariga ega: konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik, qayta tiklanuvchanlik. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida umumpedagogik, xususiy – metodik, modulli yo'nalishlarda qo'llash darajalari aniqlangan. Har qanday texnologiya biron bir g'oyani, ilmiy fikr yoki nazariyani hayotga tadbiiq etib, uni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Metodologik yondashuvlar: Maktabda metodologik ta'limning sosini metodologik yondashuvlar tashkil etadi. Bu yondashuvlar o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodlari va shakillarini o'zgartirishga, yangilashga yordam beradi. Masalan, faoliyatga asoslangan yondashuv, kritik fikrlashni rivojlantirish kabi yondashuvlar.

O'qitish texnologiyalari: Zamonaviy o'qitish texnologiyalarning qo'llanilishi metodologik ta'limni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Interaktiv ta'lim platformalari, elektron ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'qitishning metodik kompetensiyasi: O'qituvchining metodik kompetensiyasi uning pedagogik metodlar, metodologik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'qituvchilarni metodik ta'limda tayyorlash o'qitishning samarali bo'lishi uchun muhimdir.

O'qituvchi metodik kompetensiyasini shakllantirish uchun pedagogik va metodik bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar o'qituvchining ta'lim jarayonini qanday tashkil qilishini,

o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni, ta'lim metodlarini tanlashni va ularni amaliyotda qo'llashni o'z ichiga oladi.

Pedagogik nazariya: O'qituvchi ta'lim jarayonining asosiy nazariy prinsiplarini tushunish kerak ( masalan, konstruktivizm, faollik yondashuvi, differensial o'qitish).

Metodika: O'qituvchining turli pedagogik metodlar( muammoli ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, kooperativ ta'lim va boshqalar ) va texnologiyalarni qanday qanday qo'llashni bilishi.

O'qituvchi o'quvchilarning yoshi, qobilyatlari, ehtiyojlari va ta'lim maqsadlariga mos ravishda turli metodlarni tanlash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Metodlarni moslashtirish:

O'qituvchi har bir o'quvchining xususiyatlarini hisobga olib, metodlarni moslashtirishi, guruh ishini, mustaqil va interaktiv ishlashni tashkil qilishi kerak.

Faollikni oshirish: O'qituvchi o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undashi va ularga muammolarni hal qilishida yordam berishi kerak.

O'qituvchi metodik kompetensiyasining muhim jihati - darsni samarali rejalashtirdi. Bu jarayon o'quvchilarning maqsadli va tizimli ravishda bilim ta'minlaydi.

Dars rejasini ishlab chiqish: O'qituvchi dars maqsadlarini, vazifalarini, vazifalarini va o'quv materiallarini aniq belgilashi kerak.

Ta'limning sifatini nazorat qilish: O'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini va o'qitish samaradorligini baholash va tahlil qilishni bilishi kerak.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek zamonaviy o'qitish metodikasi texnologiyalarni o'z ichiga oladi, shu bois o'qituvchi texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Elektron resurslar va platformalar: O'qituvchi o'quvchilarga onlayn resurslar, ta'lim dasturlari va platformalardan foydalanish orqali darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilishi mumkin.

Multimedia vositalari: Video, audio va grafik materiallardan foydalanish darsini samarali va tushunarli qilishga yordam beradi.

O'qituvchi metodik kompetensiyasining yana bir muhim qismi - ta'lim jarayonini boshqarish va o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishdir.

O'qituvchining boshqaruv qobilyatlari: O'qituvchi darsni samarali tashkil qilishi, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ijtimoiy hamda psixologik muhitni yaratishi kerak.

O'quvchilar bilan muloqot: O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini tinglashi, ular bilan ochiq va samarali muloqot o'rnatishi, savollar va fikrlarni baham ko'rishi zarur.

O'qituvchi ta'lim jarayonini baholash va tahlil qilish orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab, kelajakda ta'lim jarayonini qanday yaxshilashni rejalashtirishi kerak.

Diagnostik baholash: O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini baholashda turli baholash vositalaridan ( sinovlar, testlar, loyiha ishlari ) foydalanishi kerak.

Formativ va summativ baholash: O'quvchilarning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini baholashda turli usullardan foydalanish ( doimiy baholash, yakuniy baholash ).

O'qituvchi metodik kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va metodlarni o'zlashtirishi, o'z malakasini doimiy ravishda oshirib borishi kerak.

O'qitishning metodik kompetensiyasining ahamiyati:

Ta'lim jarayonining samaradorligi: O'qituvchining metodik kompetensiyasi yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni samarali bo'ladi va o'quvchilarning bilim darajasi oshadi.

O'quvchilarning rivojlanishi: O'qituvchining to'g'ri metodik yondashuvlari o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga ta'limda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni qo'llash: Yangi metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali ta'limning sifatini oshirish mumkin.

Yuqorida aytilganidek metodlar o'quvchilarning yoshi, qobiliyatlari, mavzu va darsning maqsadiga mos bo'lishi lozim. Masalan:

Guruhli ish va boshqariladigan muhokama kabi metodlar ko'proq kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun foydalidir.

Muammoli ta'lim o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, bilim darajasini va o'quvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'limjarayonini har xil yondashuvlar bilan turlicha tashkil qilish zarur. Bu:

Differensiyalashgan topshiriqlar: O'quvchilarning darajasiga qarab topshiriqlarni turlicha va mos ravishda berish.

Individual yondoshuv: O'quvchilarga moslashtirilgan dars rejalari va materiallar orqali o'z - o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Zamonaviy o'qituvchilar uchun metodik kompetensiya doirasida ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim. Bu o'quvchilarga yanada interaktiv va innovatsion darslar o'tkazish imkonini beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

Multimedia vositalaridan foydalanish: Video, audio materiallar, taqdimotlar va boshqa vositalar darsni yanada samarali qiladi.

Onlayn ta'lim platformalari: Masalan, GoogleClassroom, Moodle kabi platformalarda o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil etish.

Darsni samarali tashkil etish: O'qituvchi darsning har bir bosqichini rejalashtirib, vaqtni oqilona taqsimlashi kerak.

O'quvchilarning psixologik holatini inobatga olish: O'qituvchi o'quvchilarning motivatsiyasi va ehtiyojlarini tushunishi, ularni rag'batlantirishi va qo'llab quvvatlashi kerak.

O'qituvchi metodik kompetensiyasini oshirish uchun doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab turish, yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni o'rganish zarur. Bunga quyidagilar kiradi:

Seminarlarda qatnashish: Pedagogik tadbirlarda ishtirok etish va yangi metodlar bilan tanishish.

Pedagogik adabiyotlarni o'qish: O'qituvchi metodik va pedagogik sohadagi yangiliklar bilan tanishib borishi zarur.

Shunday qilib, o'qitishning metodik kompetensiyasi o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdagi muhim omil bo'lib, uning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Bu kompetensiya o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashga, ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi A.N. Ziyayev "Umumiy pedagogika" (Didaktika) 53 – 54 – betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi markazi I.Hasanboyev va boshqalar "Pedagogika" pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma 20 – 21 – 22betlar, 95 – 96 -161 – 162 betlar.
3. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov "Pedagogika" O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 10000-o'qituvchilar tayyorlash ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik 37 – 38 – 367 – 368 – 387 – 388 betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax davlat pedagogika universiteti A.V.Kayumovich "Pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanma 5- 6- 7betlar
5. V.A. Karkh - "Pedagogik metodika", T.I. Shmukler "Ta'lim metodikasi"